

## ZAMONAVIY HUQUQ O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Odinayeva Muxlisa Ilhombek qizi**

*Termiz davlat universiteti, Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola zamonaviy huquq o'qituvchisining o'rta ta'lif muktablarida va oliy ta'limda huquq darslarini zamonaviy olib boruvchi o'qituvchilar faoliyatini kengaytirish va zamon talablariga mos zamonavuy mutaxassis bo'lib shakllanishi yuzasidan masalalar yoritilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zamонавији huquq o'qитувчи, mahорат, матонатли, psixolog, huquqiy darsliklar.*

O'qituvchilik- inson jamiyati tarix boshlanganda e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir.

O'qituvchi hamma ta'lif sohasida ham o'qituvchi hisoblanadi xoh u bog'chada xoh u mifik yoki universitet va institutlarda bo'lsin. Uning mavqeい ta'lif beruvchi inson va psixolog sifatida qaraladi. Uni psixolog deyishimizda esa uning hamma o'quvchilarga harakteriga mos ravishga to'g'ri muomala qilishini olsak bo'ladi. Dunyoda bitta kasb bor: o'qituvchilik. Qolganlari esa uning hosilasidir deb bekorga aytishmagan . Shu sababli ham o'qituvchilarning jamiyatda o'rni yuksak baholanadi. Ammo o'qituvchilarga qo'yiladigan alohida talablar mavjud. Bu talablar turli sohalarda turlicha qo'yiladi.

Zamonaviy huquq o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar:

- U o'z sohasi bo'yicha ya'ni, huquq sohasini chuqur bilishi lozim;
- Unda vatanparlik ruhi kuchli bo'lishi.
- Ta'lifva metodikani bilishi;
- O'quvchilarga huquqa to'g'ri yondoshini o'rgatishi.
- O'tyotgan mavzu va darslaridagi ilmlarini o'quvchilar hayotida foydalana olishlarini ta'minlashi;
- O'quvchilarga siyosiy jarayonlar haqida tushunchalar berishi;
- Ularga fanning dolzarbligini tushuntirishi.
- Zamonaviy fikrlar yuritishi;
- O'z ilmiga ijodiy yondashishi;
- Keng bilim va saviyaga ega bo'lishi;
- huquqshunoslik, zamonaviy huquq ta'liming asosiy yo'naliishlari, eruditsiya bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi;
- pedagogik va uslubiy mahorat (murakkab huquqiy materialni yetkazish qobiliyati;
- qulay psixologik muhit va o'rganish uchun motivatsiya yaratish qobiliyati;
- hazil tuyg'usiga ega bo'lish, har qanday savollarga javob berish

qobiliyati);

• nutq (uning sur'ati, diksiyasi, intensivligi, obrazliliği, emotsionalligi, shuningdek, huquqiy savodxonligi);

• o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uslubi: (avtoritar; demokratik; liberal);

• tashqi ko'rinish.

• O'quvchilar: huquqiy materialni ishlab chiqishdagi faollik va mustaqillik.

• o'rganish ko'nikmalari va qadriyatları darajasi;

• hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalari;

• intizom va tashkilotchilik darajasi.

• O'quv kurslarining huquqiy mazmuni:

• huquqiy axborotning ilmiylici, ishonchliligi;

• mavjudligi (materialning ma'lum bir adresat uchun);

• o'rganilayotgan huquqiy tushunchalarning dolzarbliji va ularning hayot bilan bevosita bog'liqligi;

• o'rganilayotgan huquqiy muammoning yangiligi mavjudligi;

• taklif etilayotgan huquqiy axborot miqdorining optimalligi.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuninguchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablaridan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishi uchun intilishi kerak. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xillagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorgarligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar Muhim davlat vazifasini Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga tayyorgarligidan dalolat beradi. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'zishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Jamiyat uchun o'qituvchining o'rni va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. Tushunarli bo'lishi kerakki, o'qituvchi ulkan mas'uliyatli, hur fikrli va o'sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanady talab bo'lsa, unga ham shunchalik qat'iy talab bo'ladi. Ya'ni bilimini bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dollzarbliji kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik o'qituvchining majburiy kasb talabi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida haqli ravishda ta'kidlaganidek, "... agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i muktab bo'lsa, kasblaming ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylidir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamic". Darhaqiqat, o'qituvchi, nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib

kiradigan, balki ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan mo'tabar zotdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008-yil.
2. O'zbekiston Republikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".Toshkent, 1997yil
3. M. Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixiologiyasi. Toshkent, 2003-yil.

Карабаев, М. К., Абдуманнонов, А. А., & Махмудов, Н. И. (2013). Об интеллектуализации медицинских информационных систем. *Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Естественные и технические науки*, (9-10), 60-65.